



THE ROLE OF THE "LABOUR" CONCEPT IN SHAPING THE LINGUISTIC WORLDVIEW

G'anisher Jo'rayev

Lecturer, Uzbekistan State World Languages University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18742502>

ARTICLE INFO

Received: 15th February 2026

Accepted: 21st February 2026

Online: 22nd February 2026

KEYWORDS

Linguistic picture of the world, concept, labor, linguoculturology, cognitive linguistics, mentality.

ABSTRACT

This article analyzes the role and significance of the concept of "labour" in shaping the linguistic picture of the world. Through the study of proverbs, phraseological units, and lexical layers in various languages, the research highlights the cultural and cognitive characteristics of the notion of labour, as well as the similarities and differences in the attitudes of different peoples toward work.

"LABOUR- MEHNAT" KONSEPTINING OLAMNING LISONIY MANZARASINI YARATISHDAGI ROLI

G'anisher Jo'rayev

o'qituvchi, O'zDJTU

g_anisher_jo_rayev@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18742502>

ARTICLE INFO

Received: 15th February 2026

Accepted: 21st February 2026

Online: 22nd February 2026

KEYWORDS

Olamning lisoniy manzarasi, konsept, mehnat, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, mentalitet.

ABSTRACT

Ushbu maqolada "mehnat" konseptining olamning lisoniy manzarasini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida turli tillardagi maqollar, frazeologik birliklar va leksik qatlamlar orqali mehnat tushunchasining madaniy va kognitiv xususiyatlari, shuningdek, xalqlarning mehnatga bo'lgan munosabatidagi o'xshashlik va farqlari yoritib berilgan.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda olamning lisoniy manzarasi tushunchasi insoniyatning borliq haqidagi tasavvurlarini tilda aks ettirish usuli sifatida o'rganiladi. Til nafaqat muloqot vositasi, balki muayyan xalqning dunyoqarashi, madaniyati va qadriyatlarini aks ettiruvchi ko'zgudir.

Har bir xalq o'z madaniyati, turmush tarzi va qadriyatlaridan kelib chiqib, dunyoni o'ziga xos tarzda "lisoniy qoliplarga" soladi. Ushbu manzarani shakllantiruvchi eng fundamental konseptlardan biri — "Mehnat" konseptidir.



Mehnat — bu nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat, balki insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasini belgilovchi kognitiv tushunchadir. O'zbek madaniyatida mehnat jamoaviylik, baraka va tarbiya vositasi sifatida ko'rilsa, ingliz tilida u ko'proq professionallik, individual muvaffaqiyat va iqtisodiy foyda ma'nosida talqin etiladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – “mehnat” tushunchasining tilda qanday aks etishi, uning etika, din va kundalik turmush bilan bog'liqligini kognitiv nuqtayi nazardan ochib berishdir.

Metodlar. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- Lingvokulturologik tahlil: Mehnat tushunchasining madaniy kodlarini aniqlash.

- Komponent tahlil: So'zlarning semantik tuzilishini o'rganish.

- Qiyosiy-tipologik metod: Turli tillardagi (masalan, o'zbek va ingliz) maqollarni solishtirish orqali umumiylik va xususiy jihatlarni belgilash.

- Kognitiv modellashtirish: Mehnat konseptining tushunchaviy, obrazli va qadriyat qismlarini tizimlashtirish.

Natijalar. Tahlillar natijasida “mehnat” konseptining har ikki tilda bir necha semantik maydonlarga bo'linishi aniqlandi:

O'zbek tili lisoniy manzarasida:

1. Mehnat — baraka manbai: “Mehnatdan kelsa boylik — turmush bo'lar chiroylik”. Bu yerda mehnat diniy va axloqiy nuqtayi nazardan “halollik” bilan bog'lanadi.

2. Jismoniy quvvat: O'zbek tilida mehnat ko'pincha “bilak kuchi”, “peshona teri” kabi metaforalar orqali ifodalanadi.

3. Disfemik ko'rinishlar: Mehnat jarayonidagi qiyinchilikni ifodalashda “eshakdek ishlash”, “qora mehnat” kabi disfemik birliklar pragmatik maqsadlarda (shikoyat, og'ir mehnatni urg'ulash) qo'llaniladi.

Ingliz tili lisoniy manzarasida:

1. Work — Result/Business: “Hard work pays off”. Ingliz tilida mehnat ko'proq pragmatik natija va martaba bilan bog'liq.

2. Vaqt va samaradorlik: “Work against the clock” kabi iboralar mehnatning vaqt bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

3. Pragmatik farq: Inglizlarda “labor” (jismoniy, og'ir) va “work” (umumiy faoliyat) orasidagi chegara aniqroq shakllangan.

Tahlillar umumlashtirilganda “mehnat” konseptining olam lisoniy manzarasidagi quyidagi voqealanish shakllari aniqlandi:

1. Ijobiy qadriyat sifatida: Aksariyat tillarda mehnat boylik, baxt va baraka manbai sifatida talqin qilinadi. Masalan: “Mehnat – rohatning kaliti”, “No pain - no gain.”

2. Inson shaxsini belgilovchi mezon: Shaxsning ijtimoiy mavqeyi uning mehnatga bo'lgan munosabati orqali baholanadi. “Harakatda barokat” konseptual metoforasi o'zbek lisoniy manzarasida markaziy o'rin tutadi.

3. Antiteza (Zidlantirish): Mehnat deyarli barcha tillarda “dangasalik” tushunchasiga qarama-qarshi qo'yiladi.

4. Diniy-axloqiy asoslar: O'zbek tilida mehnat “halollik” tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lsa, g'arb madaniyatida u ko'proq “individual muvaffaqiyat” bilan bog'lanadi.

Muhokama. “Mehnat” konsepti tilda nafaqat jismoniy harakat, balki murakkab kognitiv tuzilma sifatida



namoyon bo'ladi. O'zbek mentalitetida mehnat jamoaviylik (hashar), oila farovonligi va oxirat savobi bilan bog'liq: "Mehnat qilsang, yer to'yar". G'arb mentalitetida esa mehnat ko'proq professionalizm va vaqtni boshqarish bilan mujassamlashadi: "Time is money".

Maqollarning tahlili shuni ko'rsatadiki, mehnat konsepti olamning lisoniy manzarasida "tirikchilik", "shon-sharaf" va "tarbiya" kabi sub-konseptlar bilan birikib, yaxlit tizimni hosil qiladi. Tildagi frazeologizmlar "belini bog'lamoq, "qo'li-qo'liga tegmaslik"

mehnatning dinamik harakat ekanligini vizuallashtiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, "mehnat" konsepti olamning lisoniy manzarasini shakllantiruvchi fundamental birliklardan biridir. U milliy mentalitetning o'ziga xosligini, xalqning hayotiy tajribasini va axloqiy normalarini o'zida mujassam etadi. Ushbu konseptni o'rganish til va tafakkur bog'liqligini tushunishda, shuningdek, madaniyatlararo muloqotni samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

References:

1. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.
2. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab... // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – № 3.
3. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.